

TIJORAT BANKLARINI TO'LOVGA QOBILLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Shoimov Anvar Abduraxmon o'g'li
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz bank tizimi va uning shakllanib borish tarixi, soha rivoji maqsadida qabul qilingan muhim me'yoriy – huquqiy hujjatlar, amalga oshirilgan islohotlar atroflicha yoritib berilgan. Bank tizimi barqarorligining makroiqtisodiyot uchun ahamiyati va bu to'lovga qobilyatini ta'minlashni ta'minlash va nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan Markaziy banklarning bu boradagi siyosatlari to'g'risida ma'lumot berilib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lovga qobilyatini ta'minlashni ta'minlash maqsadida foydalangan instrumentlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bank tizimi , to'lovga qobilyatini ta'minlash, stress-test, makroprudentsial siyosat, kreditni garov qiymatiga nisbati (Loan-to-value, LTV) , kredit to'lovining daromadga nisbati.

To'lovga qobilyatini ta'minlash – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. To'lovga qobilyatini ta'minlash maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. To'lovga qobilyatini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi To'lovga qobilyatini ta'minlashni ta'minlash bir qator mamlakatlar markaziy banklari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Buning sababi shundaki, zamonaviy iqtisodiyotda pul-kredit va boshqa davlat organlari oldiga qo'yilgan vazifalar sifatida inflyatsiya va ishsizlikning past darajasi, yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga pul-kredit siyosatini o'tkazuvchi barqaror moliya tizimi yordamisiz hal qilib bo'lmaydi. To'lovga qobilyatini ta'minlash ko'pgina mamlakatlarda Markaziy bankning zimmasiga yuklatiladi. Markaziy bank ushbu vazifani moliya tizimidagi risklarni baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, moliya va to'lov tizimini nazorat qilish va tartibga solish, zarurat tug'ilganda muammoli va tugatilayotgan bankrot banklar uchun oxirgi instansiya kreditori rolini bajarish hamda qayta tashkil etish tartib-taomillarini amalga oshiradi. Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan to'lovga qobilyatini ta'minlash vositalari:

- Xatarlarning (risklarning) tahlili va baholanishi;

- bozor ishtirokchilari tomonidan risklarni idrok etish, xabardorligini oshirish va ularning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- moliyaviy infratuzilmalarni nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish va zarur hollarda likvidlikni ta'minlash;
- oxirgi instant kreditor funksiyasini qo'llash;
- To'lovga qobilyatini ta'minlash masalalari bo'yicha qo'mita va boshqa vositalar.

Mumkin bo'lgan risklarni aniqlash va cheklash maqsadida Markaziy bank doimiy ravishda mamlakat iqtisodiyoti va jahon moliya tizimini, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi, bozorlar monitoringini olib boradi, ichki to'lov va hisob-kitob tizimlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ushbu bosqichda moliya tizimini tahlil qilishning tarkibiy qismlari moliya tizimining bo'g'inlari (moliya institutlari, moliyaviy infratuzilmalar va moliyaviy bozorlar) va makroiqtisodiyot kiradi. Moliyaviy tizimning ehtimoliy risklar yuzaga kelganda zaiflik darajasini baholash uchun Markaziy bank xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan stress testlarini qo'llaydi. Stress testlar kuzatiladigan turli xil shok ssenariylar amalga oshirilgan taqdirda moliyaviy tizimga yoki uning alohida ishtirokchilariga yetkaziladigan zararni baholash uchun ishlatiladi. To'lovga qobilyatini ta'minlashning navbatdagi muhim bosqichi risklarni boshqarishdir Markaziy bank moliyaviy tizim risklarini prudensial va makroprudensial siyosat, shuningdek, moliya institutlari faoliyatini nazorat qilish orqali boshqaradi. Prudensial boshqaruv alohida moliyaviy sub'ektlar uchun ular bilan bog'liq risklarni tartibga solinadigan darajada ushlab turishga imkon beradigan ma'lum bir me'yoriy-huquqiy bazani yaratishni o'z ichiga oladi. Makroprudensial siyosat deganda, bu holda, uning alohida sub'ekti emas, balki butun moliya tizimining barqarorligini ta'minlash uchun prudensial vositalardan foydalanish tushuniladi. Makroprudensial siyosatni qo'llashdan maqsad tizimli risklarni kamaytirishdir. O'z navbatida, makroprudensial vositalariga kapitalning konservatsiya buferi, kontrsiklik kapital buferi, mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer, kreditni garov qiymatiga nisbati (Loan-to-value, LTV) hamda kredit to'lovining daromadga nisbati (Payment-to-income, PTI) bo'yicha cheklovlar va boshqalar kiradi. Markaziy bankning to'lovga qobilyatini ta'minlashni ta'minlash siyosati uchta yo'nalishga ega: Agar moliya tizimi barqaror deb baholansa yoki boshqacha aytganda, ko'rsatkichlarning o'zgarishi maqbul darajada bo'lsa, bu holda tegishli siyosat preventiv xarakterga ega bo'ladi. Bunday siyosatni amalga oshirish bir qator makroprudensial ko'rsatkichlarning doimiy monitoringini nazarda tutadi. Moliya tizimiga bevosita va bilvosita tahdid soluvchi xalqaro risklarning miqdoriy va sifat jihatidan tahlili ham amalga oshiriladi. Agar moliya tizimining tebranishlari maqbul tebranishlar oralig'ida qolsa ham, ammo maqbul diapazondan tashqariga chiqish ehtimoli mavjud bo'lsa, bu

esa moliya tizimi yoki nomoliyaviy tizimning har qanday bo'g'inidagi tebranishlarning o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, tenglashtiriluvchi siyosat qo'llaniladi. Bunday siyosat moliya bozori vositalarini baholashning yangi usullarini qo'llashni, risklarni baholashni, aktivlar zaxiralari va kapitalning etarligiga yangi talablarni belgilashni, moliya tizimining barqarorligi uchun xalqaro miqyosda tan olingan talablarni belgilashni va tegishli o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, mavjud vositalar to'plami kengaytirilishi va tartibga soluvchi talablarni o'zgartirishi mumkin. Agar moliya tizimining tebranishlari ruxsat etilgan tebranishlar doirasidan tashqariga chiqsa va tizim moliyaviy vositachi, to'lov va hisob-kitob funksiyalari sifatida o'z funksiyalarini yetarli darajada bajara olmasa, bu holda siyosat reabilitatsion xarakterga ega bo'ladi. Reabilitatsiya siyosati odatda inqirozni butunlay yengish choralarini ifodalaydi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: Markaziy bankdan qarz mablag'larini olish imkoniyatlarini kengaytirish, miqdoriy kengaytirish siyosatini qo'llash, favqulodda likvidlikni oxirgi chora sifatida ta'minlash va boshqalar. Kapital monandlilik koeffitsiyenti banklar to'lov qobiliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bazel III standartlariga ko'ra, bank jami kapitalining monandlilik koeffitsiyenti riskka tortilgan aktivlarga nisbatan kamida 8 foiz bo'lishi tavsiya etilgan. Bundan tashqari, Bazel III standartlarida bank kapitaliga nisbatan konservatsiya buferi (2,5 foiz), kontrsiklik kapital buferi (0–2,5 foiz), mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (aniq chegarasi belgilanmagan) kabi qo'shimcha talablarni o'rnatish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda tijorat banklari uchun kapital monandlilik koeffitsiyenti 13 foiz qilib belgilangan. Markaziy bank Bazel III tavsiyalariga mos ravishda kapitalga qo'yilgan minimal me'yoriy talablarini bosqichma-bosqich o'zgartirdi. Bugungi kunda O'zbekistonda kreditni garov qiymatiga nisbati va kredit to'lovini daromadga nisbati kabi makroprudensial vositalar amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Bunga sabab oxirgi yillarda hajmi ortib borayotgan avtoullov va ipoteka kreditlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumoti www.cbu.uz
2. Xalqaro valyuta fondining “To'lovga qobiliyatini ta'minlash ko'rsatkichlari” qo'llanmasi.2007y.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “To'lovga qobiliyatini ta'minlash sharhi” tahlili 2022y.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida”gi 26/7-sonli qarori, 2017y.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 24/5-sonli qarori, 2019 y.